



MAMLAKATIMIZDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI STATISTIK BAHOLASH

Ro'ziyev Alisher Ibroimovich -
Toshkent moliya instituti, "Statistika
va ekonometrika" kafedrasida dos.

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a87

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasining mazmuni, mohiyati va rivojlanish tarixi yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida xizmatlar sohasining tutgan o'ri va tarkibiy ko'rsatkichlarining tendentsiyalari aniqlangan. Bundan tashqari, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, tarkibiy o'zgarishlarini baholash, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi aniqlangan. Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining istiqboldagi prognoz qiymatlari hisoblangan va shular asosida xulosalar va takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, statistik ma'lumotlarni to'plash, jadval va grafiklar, mutlaq o'zgarish, o'zgarish sur'atlari, qo'shimcha o'sish sur'ati, 1% qo'shimcha o'zgarish-ning mutlaq qiymati, dinamika qatorlari, tendensiya, YaIM, omillar, o'rtacha miqtorlar, tarkibiy siljishlar, ish bilan bandlik, aholi jon boshi, prognoz qiymat.

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ТЕРРИТОРИИ ОБСЛУЖИВАНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Рузиев Алишер Иброимович -
Ташкентский финансовый институт,
кафедра «Статистика и эконометрика» доц.

Аннотация. В данной статье представлены мнения и комментарии о содержании, характере и истории развития сферы услуг. При этом определена роль сферы услуг в развитии экономики Узбекистана и тенденции ее структурных показателей. Кроме того, определено изучение влияющих на них факторов, оценка структурных изменений, объем услуг на душу населения. Также были рассчитаны будущие прогнозные значения объема услуг на душу населения, и на их основе сделаны выводы и предложения.

Ключевые слова: сфера услуг, сбор статистических данных, таблицы и графики, абсолютное изменение, скорость изменения, темп прироста, абсолютное значение прироста на 1%, динамический ряд, тренд, ВВП, факторы, средние количества, структурные сдвиги, занятость, на душу населения, прогноз ценить.

STATISTICAL ASSESSMENT OF SERVICE AREAS IN OUR COUNTRY

Ruziyev Alisher Ibroimovich -
Tashkent Institute of Finance, Department of
"Statistics and Econometrics" Assoc.

Annotation. This article states thoughts and comments on the history of the services, essence and development. At the same time, trends and structural indicators of services in the development of the Uzbek economy have been identified. In addition, the study of the factors affected by them, the assessment of structural changes, the per capita services have been identified. There are also future forecasting value of services per capita, and based on conclusions and suggestions.

Key words: service industry, statistical data collection, tables and graphs, absolute change, rate of change, incremental growth rate, 1% incremental change absolute value, dynamic series, trend, GDP, factors, average quantities, structural shifts, employment, per capita, projected value.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi. Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqish va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

O'zbekiston uchun xizmatlar statistikasi – statistika faoliyatining nisbatan yangi tarmog'i bo'lib, uning ahamiyati respublika informatsion tizimining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni milliy hisobchilik prinsiplari asosida shakllantirishga o'tishida jiddiy ravishda oshdi.

Xizmatlar sohasi sotsial-iqtisodiy kategoriya sifatida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish turlarining keng spektrdagi takror ishlab chiqarishini qamrab olib, ularning har biriga maxsus faoliyat turi mos keladi. Xizmatlar tovarlardan farqli ularoq moddiy obyektlar shaklini ola olmaydi.

Respublikamiz tarmoqlari yalpi qo'shilgan qiymatida xizmatlar sohasining ulushi 2021-yilda 38,6 foizni va YaIMdagi hissasi esa 35,7 foizni tashkil etib, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 284165,4 mlrd. so'mga, 2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati 119,5 foizga teng bo'ldi. Xizmatlar sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) sanoat va agrar sektorga nisbatan mos ravishda qariyb 1,4 martaga va 43,5 foizga yuqori bo'lgan.

Shuningdek, 2021-yilda tovarlar yalpi ishlab chiqarishida oraliq iste'molining salmog'i 48,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich xizmatlar sohasida 38,7 foizga teng bo'lgan, ya'ni oraliq iste'molining salmog'i tovar ishlab chiqarishga nisbatan 9,6 foiz bandga past bo'lishi bu sohani yanada rivojlantirib qo'shilgan qiymat zanjirini shakillantirishga va uning miqdorini ko'paytirishga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarorida xizmatlar sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish, xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha o'z yechimini kutayotgan muammoli masalalarni hal qilish[1] alohida ta'kidlangan. Mazkur qarorda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini 2,0 baravarga oshirish belgilangan. Maqsad qilingan vazifalarni bajarishda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganib xizmatlar sohasiga qo'llash muhim masala hisoblanadi. Bu esa milliy statistika tizimida soha ko'rsatkichlarini bevosita zamonaviy statistik metodlar yordamida aniqlash va aks etirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. Birinchi bo'lib, "xizmat" tushunchasini fanga klassik iqtisodiy maktab namoyondasi, fransuz iqtisodchisi Jan Batist Sey kiritgan. Uning fikriga ko'ra xizmatlarni faqat inson tomonidan emas, balki jism va tabiat kuchi tomonidan ham ko'rsatiladi, deb hisoblagan[3].

Shu bilan birga klassik iqtisod maktabi asoschisi Adam Smit o'z tadqiqotlarida xizmatlar sohasini alohida tadqiq qilmagan. Olim xizmatga mehnat sifatida qaraydi va mehnat (xizmat) ishlab chiqarish jarayonining o'zida iste'mol bo'lishi, unumli va unumsiz mehnat (xizmat)larga bo'lishini aytib o'tgan. Smit mehnat (xizmat) qiymat yaratmasligini, qiymat faqat moddiy sohada yaratilishini e'tirof etib o'tgan[4].

Marksizm maktabi asoschisi Karl Marks ham xizmatlarni alohida tadqiq etmasa-da, o'z asarlarida "samarali xizmat" tushunchasini ishlatadi. Xususan, u transport xizmatlarini sanoat rivojida samarali xizmatlar sifatida baholaydi. Shuningdek, Marks jamiyatda kapitalist va ishchilarni pulning chiqish manbai sifatida e'tirof etadi[5].

Postindustrial jamiyatning rivojlanishi "xizmat" kategoriyasini ham boyidagi. Endilikda, qiymat moddiy boylukda emas, jonli mehnatda, ya'ni xizmat ko'rsatishda yaratilishi haqidagi nazariyalar ilgari surildi. Bu nazariya tarafdorlari Keynschilar maktabi asoschisi Jon Meynard Keyns bo'lib, u inson omilisiz har qanday moddiy boyluk qotib qolishi va qiymat yaratilmasligini ta'kidlaydi [6].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim M.E.Po'latov o'z tadqiqotlarida inson kapitaliga quydagicha ta'rif beradi: inson kapitali – kishilarga taalluqli ularning ko'zga ko'rinadigan eng muhim jihatlari, jumladan, korxonada xodimlarining malakasi, amaliy ko'nikmalari, ish tajribalari, shuningdek ijodiy va fikrlash qobiliyatlari, bu fazilatlaridan maqsadli foydalanilishi turli darajalarda (indivud, korxonada yoki jamiyat) daromad va foyda oshishiga, ish sifati hamda samaradorligini oshirishga imkon beradi [7].

"Xizmat" tushunchasiga mamlakatimiz olimlari ham o'z fikrlarini bildirib o'tishgan, xususan iqtisodchi olim M.M.Muxammedov quyidagicha ta'rif beradi: "moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, inson mehnati bilan yaratilgan barcha ne'matlar, ular oldi-sotdi obyektiga aylanishi yoki aylanmasligidan qat'iy nazar, bitta ibora bilan, ya'ni "xizmat" iborasi bilan nomlanadi. Uning tarkibiga esa oldi-sotdi vositasida bozor orqali iste'molchiga borib yetadigan xizmat ham, umuman bozorga dahldor bo'lmagan qismi ham kiradi[8].

Yana bir iqtisodchi I.S.Ochilov "xizmat" tushunchasiga "inson, mehnat jamoasi, hudud, davlat va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli ko'rsatilishi mumkin bo'lgan faoliyati" deb, "xizmat ko'rsatish"ga esa "inson, mehnat jamoasi, hudud, davlat va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli faoliyati amalga oshirilgan qismi" deya ta'rif keltiradi. Ya'ni "xizmat ko'rsatish"ga aniq manzilga yo'naltirilgan xizmat sifatida qaraydi [9].

Shu o'rinda servis tushunchasiga ham alohida e'tibor berish lozim. Chunki ko'pchilik iqtisodchilar ushbu iqtisodiy kategoriyalarni bir-biridan farqlashlarida ko'plab ziddiyatlar paydo bo'lmoqda. Ayrimlari xizmatni keng ma'nodagi tushuncha sifatida e'tirof etishsa, boshqalari qarama-qarshi fikr bildirgan holda servis xizmatga qaraganda keng mazmunda ekanligini bildirishmoqda. Iqtisodchi olim F.O.Abdullayev esa ikkala nazariyaga qo'shilgan holda ta'rifni taklif etgan [10].

Qayd qilingan olimlarning ilmiy ishlarida xizmatlar sohasi ijtimoiy-iqtisodiy va nazariy jihatdan o'rganilgan, ammo xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishiga doir ilmiy izlanishlarning yetarlicha amalga oshirilmaganligi maqolaning maqsadi qilib belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlil jaryonida statistik ma'lumotlarni to'plash, jadval va grafiklar, bundan tashqari tasviriy statistika ko'rsatkichlari va o'rtacha miqdorlardan foydalanildi. Maqolada xizmatlar sohasining tutgan o'rnini statistik baholashda dinamika qatorlarini statistik tahlil qilish ko'rsatkichlaridan, tahlil va sintez, hamda mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlardan foydalanilib, statistik ko'rsatkichlar aniqlangan. Maqolada xizmatlar sohasining tutgan o'rnini statistik baholashda dinami-

STATISTIKA

ka qatorlarining statistik tahlili amalga oshirilgan va istiqboldagi prognoz qiymatlari aniqlangan. Shu bilan birga muallif tomonidan xulosa va takliflar berilgan.

Tahlil va natijalar. Xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning tarkibiy yangilanishi, aholi farovonligi va ish bilan bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, keyingi yillarda sohani rivojlantirishda jiddiy e'tibor berilishi natijasida, uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rnida o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizda xizmatlar sohasining rivojlantirish holatiga to'xtalsak, 2021 yilda YaIM hajmi 734587,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan xizmatlar sohasiga 284165,4 mlrd so'mga to'g'ri

keladi, yoki uning YaIMdagi ulushi 38,6 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 19,5 foizga, aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi esa 7528,9 ming so'mni, o'zgarish sur'ati 117,2 foizni tashkil etgan[6]. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, umum hisobda iqtisodiyotda xizmatlar ko'rsatish sohasining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'sish tendensiyasi kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ko'rsatilgan xizmatlar dinamikasini miqdoriy tomondan baholashda quyidagi statistik ko'rsatkichlar qo'llanildi:

mutlaq o'zgarish;

o'zgarish sur'ati, qo'shimcha o'zgarish sur'ati; bir foiz o'zgarishning mutlaq mohiyati.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida ko'rsatilgan xizmatlar dinamikasini miqdoriy tomondan baholash, mlrd.so'm

Yillar	Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, 2020 yil bahosida, mlrd.so'm.	Mutlaq o'zgarish, mlrd.so'm.		O'zgarish sur'ati,%		Qo'shimcha o'sish sur'ati,%		1% qo'shimcha o'zgarishning mutlaq qiymati
		bazis usulda	zanjir-simon usulda	bazis usulda	zanjir-simon usulda	bazis usulda	zanjir-simon usulda	
2010	68511,2	-	-	100,0	115,8	-	15,8	-
2011	80295,1	11783,9	11783,9	117,2	117,2	17,2	17,2	685,1
2012	92098,5	23587,3	11803,4	134,4	114,7	34,4	14,7	803,0
2013	105360,7	36849,5	13262,2	153,8	114,4	53,8	14,4	921,0
2014	120321,9	51810,7	14961,2	175,6	114,2	75,6	14,2	1053,6
2015	136445,0	67933,8	16123,1	199,2	113,4	99,2	13,4	1203,2
2016	156502,4	87991,2	20057,4	228,4	114,7	128,4	14,7	1364,5
2017	171132,3	102621,1	14629,9	252,9	110,7	152,9	10,7	1565,0
2018	188667,3	120156,1	17535,0	275,4	108,9	175,4	8,9	1711,3
2019	213571,4	145060,2	24904,1	311,7	113,2	211,7	13,2	1886,7
2020	219978,5	151467,3	6407,1	321,1	103,0	221,1	3,0	2135,7
2021	262874,3	194363,1	42895,8	383,7	119,5	283,7	19,5	2199,8

Manba: O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish orqali shuni ko'rishimiz mumkinki, ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'zgarishini 2010-2021-yillarni dinamikasini miqdoriy tomondan baholash natijalariga ko'ra, 2021-yilda 2010-yilga nisbatan mutlaq o'zgarishi 194363,1 mlrd. so'mni, 2020-yilga nisbatan 42895,8 mlrd. so'mga o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Agar o'zgarish sur'atini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda bazis 2010 ga nisbatan 3,8 martadan ziyodga, 2020-yilga nisbatdan esa 19,5 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga umumlashtirib baho berish uchun qatorning o'rtacha darajalarini hisoblash zaruriyati tug'iladi va bu ko'rsatkich oddiy arifmetik o'rtacha formulasi yordamida aniqlanadi:

$$\bar{Y} = \frac{Y_1 + Y_2 + \dots + Y_n}{n} = \frac{\sum Y}{n}$$

bu yerda: Y_i – yillar bo'yicha xizmatlar hajmi;
 n – yillar soni;

1-jadval ma'lumotlari asosida 2010-2021 yillar bo'yicha o'rtacha yillik ko'rsatilgan xizmatlar hajmini aniqlaymiz.

$$\bar{Y} = \frac{1815758,6}{12} = 151313,2 \text{ mlrd. so'm.}$$

Xizmatlar hajmining o'zgarishini statistik grafikda tasvirlasak yaqqolroq tasavurga ega bo'lamiz.


O'zbekistonda doimiy aholi sonining yildan-yilga o'sib borayotganligini inobatga olsak, xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish aholining ish bilan bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, natijada turmush darajasi yaxshilanadi va farovonlashadi. Bu esa aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini aniqlashni taqozo etadi. Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanib, uning natijalari 2-jadvaldagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi.

$$AJBXH = \frac{KXH}{\bar{A}}$$

bu yerda: $AJBXH$ – Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi;

KXH – Ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi;

\bar{A} – doimiy aholining o'rtacha yillik soni.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so'm (taqqoslama bahoda)

Manba: O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

2-jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, doimiy aholi soni 2010-2021-yillarda 22,2 foizga ko'payib, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga qariyb 3,14 martaga oshgan, ya'ni 2010-yil-

da 2398,6 ming so'mni, 2021-yilda esa 7528,9 ming so'mni tashkil etgan. Statistik tahlil natijalarida aniqlangan aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi 2-rasmda aks ettirilgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi dinamikasi

Yillar	Doimiy aholining o'rtacha yillik soni, ming kishi	Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so'm.		Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi, 2020-yil baholarida, ming so'm
		Joriy baholarda	2020-yil baholarida	
2010	28562,4	27 126,8	68511,2	2398,6
2011	29339,4	35 196,3	80295,1	2736,8
2012	29774,5	44 386,0	92098,5	3093,2
2013	30243,2	55 872,8	105360,7	3483,8
2014	30757,7	68 032,1	120321,9	3911,9
2015	31298,9	78 530,4	136445,0	4359,4
2016	31847,9	97 050,0	156502,4	4914,1
2017	32388,6	118 811,0	171132,3	5283,7
2018	32956,1	150 889,8	188667,3	5724,8
2019	33580,4	193 697,8	213571,4	6360,0
2020	34232,1	219 978,5	219978,5	6426,1
2021	34915,1	284 165,4	262874,3	7528,9

Manba: O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Respublikamizda 2010-2021-yillarda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining geometrik o'rtacha formulasi yordamida aniqlangan o'rtacha yillik o'sish sur'ati 113,0 foizni, qo'shimcha

o'sish sur'ati esa 13,0 foizni tashkil etganini inobatga olsak, qisqa muddatli prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin (3-jadval).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (ming so'm hisobida)

Manba: O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Hisoblangan prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 2020-yil baholarida 2024-yilda 10863,4 ming so'm-

ni tashkil etilishi kutiladi, ya'ni 2021-yilga nisbatan o'sish sur'ati 144,3 foizni tashkil etishi mumkin.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining prognoz ko'rsatkichlari (ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	2021-y. haqiqatda	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi prognoz natijalari (ming so'm hisobida)	7528,9	8507,6	9613,6	10863,4

Xulosa va takliflar. Fikrimizcha, xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish ayniqsa, qishloq joylarida ko'rsatilayotgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Prezident tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoda ko'rsatilganidek, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirishga erishish;

- qishloq aholi punktlarida xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish, birinchi navbatda kommunal-maishiy, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash;

- xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaviy tadbirkorlik subyektlariga o'quv muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni jalb etish;

- har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasining ulushi oshib borishiga erishish maqsadida shart-sharoitlar yaratish;

- ayollarning ish bilan bandligi xizmat ko'rsatish sohasida o'sib borayotganligini hisobga olib, ularning kasbiy faoliyatlarini oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi bilan birga uyg'un tarzda yo'naltirishlari uchun bandlikning nostandart turlaridan foydalanish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xizmatlar sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni, uning tarkibini zamon talablariga mos holda o'zgartirishni amalga oshirishni optimal tarzda olib borish YaIMda qo'shilgan qiymat hajmini ko'paytirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan xizmatlarning bozorda yangi-yangi o'nlab turlarini barpo etish, jumladan kredit kartalari orqali to'lovlar, internet-savdo, yangi savdo-sotiq markazlari, ovqatlanish oshxonalari, mehmonxonalar ochish, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, turizm industriyasi kabilarni rivojlantirib, aholi tumush darajasi va farovonligini yuksaltirish zarurdir.

Manba va foydalanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarori. // Xalq so'zi, 2021-yil 12-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-soni farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4926736>
5. Jon Batist Sey, Frederik Bastia. Traktat po politicheskoy ekonomii / – M.: "Delo", 2000.
6. Adam Smit. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. – M.: Eksmo, 2016.
7. Карл Маркс. Капитал. – Санкт-Петербург: ИГ Лениздат, 2013.
8. Жон Мейнард Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: «Гелиос АРВ», 2012.
9. Пўлатов М.Э. Интеллектуал капитал ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Т.: ТМИ, 2017, - 66-б.
10. Мухаммедов М.М. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish va turizmning nazariy asoslari. Monografiya.- Samarqand, SamISI, 2016.
11. Очиллов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Самарқанд: СамИСИ, 2010. -26-б.
12. Абдуллаев Ф.О. Иқтисодиётни модернизация қилишда лизинг хизматлари ва сервисини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий омиллари (Хоразм вилояти мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди диссертацияси. – Самарқанд: СамИСИ, 2011. – 177-б.
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. www.Stat.uz.